

KO'PAYTIRUV MAVZUSINING O'QITILISH METODIKASI, DASTLABKI TUSHUNCHALAR. BIR NECHA TENG QO'SHILUVCHILAR YIG'INDISI

Rahmonova Nasiba

Andijon davlat universiteti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich

ta'lim yo'nalishi II bosqich 201-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarga qo'shish va ayrish masalalaridan so'ng ko'paytirish amalining mohiyatini qanday tushuntirish metodikasi, bir xil qo'shiluvchilar yig'indisi, mavzuga oid muammoli vaziyat va ularning yechimlari muhokama etilgan, misol va masalalar sinflar kesimida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: matematika, qo'shiluvchi, teng, yig'indi, ko'paytiruv belgisi, ishora.

O'quvchilarga ko'paytirish mavzularining kirish qismi boshqa bir yig'indilar ifodasi tarzida ko'rsatiladi.

Dastlabki ko'paytirish darslarini o'tishda qo'shish amali orqali maqsadga erishamiz. Chunki ko'paytirish amalining asosi qo'shish amalidir. Predmetlarni teng miqdordagi guruhlariga birlashtirish qulay ekanligi g'oyasini ko'paytirish amalini kiritish jarayonida ham amalga oshirish foydalidir. Bunda o'quvchilarga sinf darsliklaridan olingan bir nechta quyidagi ko'rinishdagi masalalar taqdim etiladi.

Har bir likopchada 3 tadan gilos bor. Jami nechta gilos bor?



(2-sinf. Matematika darsligi 69-bet)

Bolalar buni hisoblashda sanab chiqib yoki qo‘shib hisoblashlari mumkin. 4ta guruhning har birida 3tadan gilos bor. Ya’ni $3+3+3+3= ?$ (jami 12 ta gilos).

Quyidagi rasmda ko‘rsatilgan misolimizda esa 2ta qizaloqning qo‘llarida kubikchalar bor. Savol quyidagicha beriladi: Qizaloqlarning qo‘llaridagi kubiklar sonini toping? Bunda ko‘rib turibmizki, ikki qizchada ham 4tadan kubik bor. Jami kubiklar esa 4 tadan 2 ta guruh, ya’ni $4+4=8$ ta kubik bor.



(2-sinf. Matematika darsligi 70-bet)

Yoki ushbu misolni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Do‘konda har kuni 2 tadan non sotiladi. Agar nonlar 7 kunda sotilib bo‘lingan bo‘lsa, jami qancha non sotilganini toping? Bunda jami sotilgan nonlarni topish uchun 7ta (1 hafta 7 kundan iborat) 2ning yig‘indisini topish lozim. Ifodani yozib chiqamiz va hisoblaymiz.



(2-sinf matematika darsligi 71-bet)

$$2+2+2+2+2+2+2=14 \text{ (7 ta 2 talik = 14)}$$


Lekin boshqacha tarzda yaqqol syujetsiz rasmni ko‘rib hisoblay olmaydilar. Misol uchun har birida 4 tadan qand solingan qutilar tasvirlangan. Bunda bola predmetlar sonini sanab chiqolmaydi va qo‘shish amalidan foydalanadi ya’ni $4+4+4$ (3 ta 4 talik) = 12 (javob 12 ta qand).

Shuni esda tutish kerakki, o‘quvchilarning aniq to‘plamlar ustida tegishli amallarni bajarishdagi tajribasini kengaytirish uchun buyumlar juftlari, uchliklari va boshqalarni sanashga alohida e’tibor beriladi. Bir xil va har xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisini topishga doir masala (misollar) beriladi.


Misol uchun: Toshbaqa har soatda 3ta meva yeydi. Agar u 3 soatda mevalarni yeb tugatsa, jami unda qancha meva bor?

$$3+3+3=9$$

Keyingi masalada esa 4ta likopchada 5tadan pirojniy solingan. Jami likopchalarda nechta pirojniy bor. Bolalar rasmdagi likopcha va pirojniylarni sanamay turib, 1ta likopdagi pirojniy nechta bo'lsa, har birida teng taqsimlanganligini bilib olib, likoplar soni va undagi pirojniylarni qo'shib chiqadi.



(2-sinf. Matematika darsligi 71-bet)



$5 + 5 + 5 + 5 = 20$ ni qisqa ko'rinishda quyidagicha yozamiz:

 $4 \times 5 = 20$

\times – ko'paytirish amalining belgisi

1-ko'paytuvchi 2-ko'paytuvchi ko'paytma

O'qilishi: 4 bilan 5 ning ko'paytmasi 20 ga teng.

Jami 20 ta shirinlik.

Bunda 4 ta 5 talik guruhni qo'shamiz: 20

Shu tarzda ko'paytirish mavzulariga kirib boramiz va o'quvchini ko'paytirish amalining mazmuni bilan tanishtiramiz.

Ko'paytirishning mohiyati bir necha teng qo'shiluvchilarni qo'shishdir.

O'quvchilarga shu tarzda mavzular tushuntirilgach bir necha mashqlar berib boorish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. „Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” N.Bikbaeva.
R. Sidelnikova. G.Adambekova.
2. 1-sinf. Matematika darsligi. M.Ahmedov , N.Abdurahmonova, M. Jumayev.
2019-yil.Toshkent.
3. 2-sinf. Matematika darsligi (yanggi nashr). L.O‘rinboyeva, Sh.Ismailov,
N.Ruzikulova, U.Raxmonov, M.Jumayev, N.Ismailova, N.Usmanova
4. 3-sinf. Matematika darsligi. 2021-yil. Toshkent.
5. 4-sinf. Matematika darsligi. N.Bikbayeva, E.Yangabayeva, K.Girfanova. 2017-
yil. Toshkent